ISSN 2181-3187

INGLIZ TILI O‘QITISHDAGI MUAMMOLAR VA INNOVATSION YECHIMLARI

“Alfraganus University

Filalogiya fakulteti Ingiliz tili yo’nalishi

2-bosqich talabasi

Muhammadova Zilola Axmadjon qizi

Ilmiy rahbar: ***Ziyatova Barno***

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda chet tilini o‘qitish muammolari va kompyuter lingvistikasi tahlil asoslash orqali bo‘lajak chet tili o‘qituvchisini metodik tayyorlashning tarkibiy va funksional modelini takkomillashtirishning mazmuni va darajalarini aniqlash ularni kasbiy- pedagogik faoliyatga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlarini beradi.Bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarini zamonaviy usulda tayyorlash masalalari, kreativ fikrlaydigan chuqur bilimga ega, murakkab ijtimoiy va ishlab chiqarish muammolarini hal etishga qodir mutaxassislarni tayyorlash haqida to‘xtalib ilmiy jihatdan ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: xorijiy til, faoliyat, til o‘rganishdagi muammolar, ta’limiy o‘yinlar, muammolarga yechim.

KIRISH

Shuningdek, inspeksiya tomonidan milliy ta'lim tizimida chet tillarini o‘qitish borasida mavjud muammolar, pedagog kadrlar salohiyati tahlil qilindi. Aniqlandiki, chet tilini o‘qitishda 3 ta asosiy muammo mavjud:

1. birinchidan, o‘qituvchilar malakasining yetishmasligi:
2. ikkinchidan, metodika eskirgan:
3. uchinchidan, o‘quv va ta'lim dasturlarining zamon talablariga moslashmayotganligi:

ISSN 2181-3187

Murakkab Gramatika: Talabalar uchun ingliz tili grammatikasini o‘rganish juda qiyin. Ingliz tilida so‘zlashda talabalar asosan grammatik xatolarga yo‘l qo‘yishadi. Odatda, o‘quvchilar ingliz tilida so‘zlashda zamon, nisbat, so‘z boyligida xatolarga yo‘l qo‘yadilarGap tuzish jarayonid ko‘pincha til o‘rganuvchilar zamonni farqlashda qiynalishadi va noto‘g‘ri ishlatadilar, ya’ni ba’zan ular o‘tgan zamonda gapirmoqchi bo‘lishsa, o‘tgan zamon o‘rniga hozirgi zamonda gapirishadi. Muammo ular o‘tgan, hozirgi va kelasi zamonlarni qanday ishlatishni osongina farqlay olmasligidadir

Ta’lim strategiyalari: Tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki,o’quvchilar o’rganishda qo’llaydigan strategiyalar va tilni o’zlashtirishdagi muvaffaqiyat darajasi o’rtasida ijobiy bog’liqlik mavjud.Muavaffaqiyatli o’quvchilar o’rganishga faol yondashish bilan ajralib turadigan strategiyalarni qo’llaydilar.Masalan, tilni sinfdan tashqarida passiv yoki faol ishlatish.

Yechim: Talabalar o‘qituvchilarga bog‘lanib qolganligi. O‘qituvchilar duch keladigan yana bir e'tiborga molik muammo - bu talabalar to‘liq o‘qituvchilarga bog'liq. Ular o‘zlarini o‘rganishga va gapirishga harakat qilishmaydi. Talabalar har safar o‘qituvchilarga o‘rganishda yordam berishlari va ularga to‘g‘ri javob berishlari uchun murojaat qilishadi. Ingliz tilida so‘zlashda so'z va jumlalarni tuzatishga harakat qilishmaydi. Ushbu muammo bo'yicha talabalar ingliz tilidagi turli xil zamon va so‘zlarni nutqda ishlatishning texnik shartlarini o'rganmaganlar. Ingliz tilini o’rgatuvchilarning vazifasi faqatgina o‘rganuvchilarni o’qitish yoki ularning ingliz tilidagi mahoratlari ya’ni o‘qish, yozish, eshitish va gapirish kabi qobiliyatlariga ko‘proq e’tibor qaratishgina emas, balki ularga Ingliz tiliga bo‘lgan ishtiyoq, yaxshi

munosabat va zo‘r motivatsiya berish orqali yordam berish va ruhlantirishdan ham iboratdir. Shunday bo‘lishiga qaramasdan, bugungi kunda o’qituvchilar Ingliz tilini o‘rgatishda bir qancha qiyinchiliklar va to‘siqlarga duch kelmoqda.

Xulosa

ISSN
2181-3187

Hozirgi yosh avlodlarni o‘qitish, yuksak barkamol topishi faqatgina o’qituvchining burchi bo’libgina emas, balki oila muhiti, mahalla e’tibori bilan ham bog’liqdir. “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Va ushbu muassasalarda ingliz tilini ham erta yoshdan boshlab o’qitilishi belgilandi. Sababi, ajdodlarimiz aytganidek, “yoshlikda olingan bilim-toshga o’yilgan naqsh”. Bu bejiz emas, ushbu maqolada ko’rsatib o’tilganidek, qancha erta bilim olish boshlansa, u yuqorida ko’rsatib o’tilgan ba’zi muammolar va qiyinchiliklar bartaraf etilishiga, til ko‘nikma va malakalarining oson o‘zlashtirishiga sabab bo’lar ekan.Bolalar tez va oson o‘rganishlari uchun texnalogiyalardagi maxsus bolalar o‘ynaydigan programmalarni ingliz tiliga o‘girilsa ularni ingliz tili o‘rganishi bolalagidanoq o‘z ona tili kabi, ingliz tilini tushunishga va gapirishga moslashadi.Shu bilan birga, tilni o‘qitishdagi bu maqolada ko‘rsatib o’tilgan mavjud muammolarni, ya’ni o‘qituvchilar va yosh avlodlar orasidagi muammolarni aytib o‘tilgan yechimlar asosida bartaraf qilinishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YHATI

1. http://marifat.uz/marifat/ruknlar/umumii-urta-talim/5141.html
2. https://www.teach-this.com/ideas/problems-learning-english
3. https://www.teach-this.com/ideas/problems-learning-english